

## ZARANG (ACER SEMOVII REGEL ET HERD) O`SIMLIGINING AHAMIYATI

D.G'.Sodiqova

DTPI o'qituvchisi

Pardayeva Gulshoda Safarovna

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10935683>

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtgacha ko'pgina olimlar tomonidan respublikamiz sharoitida manzarali o'simliklarning iqlimlashtirilishi va introduktsiyasi muammolari bo'yicha anchagina tadqiqotlar amalga oshirildi va o'zga hududlardan keltirilgan o'simliklarning turli introduktsiya sharoitlaridagi bioekologik xususiyatlari o'rganilib, O'zbekiston florasida yanada boyitib kelinmoqda. Ushbu maqolada Zarang (*Acer semovii regel et herd*) o'simligining morfologiyasi va xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zarang, *Acer semovii regel et herd*, Aceraceae oilasi, morfologik, Tatar zarangi, shumtolbarg zarang, daryobo'yi zarangi.

### IMPORTANCE OF MAPLE (ACER SEMOVII REGEL ET HERD) PLANT

**Abstract.** Until now, many scientists have carried out many studies on the problems of acclimatization and introduction of ornamental plants in the conditions of our republic, and the bioecological characteristics of plants brought from other regions under different conditions of introduction have been studied, and the flora of Uzbekistan has been further enriched. This article provides information about the morphology and characteristics of the Maple (*Acer semovii regel et herd*) plant.

**Key words:** Maple, *Acer semovii regel et herd*, Aceraceae family, morphological, Tatar maple, broadleaf maple, riverside maple.

### ВАЖНОСТЬ РАСТЕНИЯ КЛЕНА (ACER SEMOVII REGEL ET HERD)

**Аннотация.** К настоящему времени многими учеными проведено множество исследований по проблемам акклиматизации и интродукции декоративных растений в условиях нашей республики, изучены биоэкологические особенности растений, привезенных из других регионов в различных условиях интродукции, а также изучены биоэкологические особенности растений, привезенных из других регионов в различных условиях интродукции. флора Узбекистана еще больше обогатилась. В статье представлены сведения о морфологии и характеристиках растения клен (*Acer semovii regel et herd*).

**Ключевые слова:** клен, *Acer semovii regel et herd*, семейство Aceraceae, морфологический, клен татарский, клен широколиственный, клен приречный.

Mamlakatimiz shaharlarining va aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish bugungi kundagi holatini yaxshilash hamda uni muhofoza qilishdagi dolzarb muammolardir. Chunki ko'kalamzorlashtirish atrof-muhitning sanitariya gigiyena holatini yaxshilashda, shamol kuchini pasaytirishda, havoni tozalashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ko'kalamzorlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan istiqbolli o'simliklarning morfologik, biologik va o'ziga xos bo'lgan ekologik xususiyatlarni o'rganish ushbu o'simlikni Denov tumani iqlim sharoitidagi aholi punktlarida ko'paytirishga va ulardan keng foydalanishga imkon beradi[2].

Shunday o‘simliklar qatoriga kiruvchi Zarangning kelgusida mamlakatimiz xalq xo‘jaligida, jumladan, ko‘kalamzorlashtirishda va aholi sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi aniq.

Zarang (*Aser L.*) turkumi *Aceraceae* oilasiga mansub bo‘lib, bu turkumga 150 ga yaqin tur kiradi. Zaranglar, barglarni to‘kuvchi daraxt hamda buta o‘simlikdir. Bo‘yi 6-8 metr ayrimlari 40 metr balandlikka va 1,5 metr diametrga ega daraxtlar. Poya po‘stolgi kulrang, yosh novdalari silliq, shoxlari yuqoriga yo‘nalgan, kulrang, jigarrang, yashiroq, o‘sovchi novdalri yashil, sariq-yashil yoki qizg‘ish-jigarrang daraxt bo‘lib, barglari butun, panjasimon bo‘lakli yoki murakkab toq patsimon tuzilgan, doira shaklida joylashadi. Gullari shingil yoki to‘pgul hosil qiladi. Ba'zi turlari bir uyli, ba'zilari ikki uylidir. Mevasi ikkita qanotchali bo‘lib, ikkiga ajraladi. O‘zbekiston sharoitida zarangning 7 ta turi introduksiya qilinmoqda. Bular *A. Negundo L.*, *A. saccharinum L.*, *A. ginnala Maxim.*, *A. pseudoplatanus L.*, *A. Campestre L.*, *A. Tataricum L.*, *A. Semenovii Rgl. Et. Herd*[3].

Zarangning yog‘ochi qimmatbaho hisoblanadi. U tiniq sariq yoki qizg‘ish rangda, og‘ir, qattiq bo‘ladi. Guli nektarli. Aholi yashash joylarni ko‘kalamzorlashtirishda katta rol o‘ynaydi, chunki uning qizil bargi va yumaloq shox shabbasi unga chiroyli tus beradi. O‘rmon melioratsiyasi ishoriga ham muhim o‘rinni egallaydi. Iyota o‘rmonzorlariga ekish tavsiya qilinadi.

Zarang yosh vaqtida tez o‘sadi, so‘ngra o‘sishi sekinlashadi. U 100-120 yil yashaydi. To‘nkasidan bachki novda chiqaradi. Parxesh yo‘li bilan ko‘payadi. Ildizidan xam bachkilaydi[2].

Zarangning bir qancha turlari Tatar zarangi, shumtolbarg zarang, daryobo‘yi zarangi ko‘kalamzorlashtirishda va o‘rmon melioratsiyasi ishlarida xamda o‘rmon xo‘jaligining xar xil tarmoqlarida keng foydalaniladi. Surxondaryoning ekologik sharoitini hisobga olgan holda zarang turkumi turlarini introduksiya qilish, hozirgi vaqtda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yishga o‘z ahamiyatiga ega.

#### REFERENCES

1. Тахтаджян А.Л. Систематика и филогения цветковых растений. – М.- Л.: Наука, 1966. – 611 с.
2. Тухтаев Б.Е. Интродукция лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 2009. – 38 с.
3. L.H. Yoziyev, Sh.A. Samatova. Manzarali o‘simliklar / Darslik / Qarshi: —"Sharq" nashriyoti, 2023. – 335 b.